

TELEVIDENIYANING YANGI TEXNOLOGIYALAR TA'SIRIDAGI TRANSFORMATSIYASI

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti magistranti
Saloxutdinova Nozila Shuxratjon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada televideniya sohasida yangi texnologiyalarning o'rni va ular ta'siridagi transformatsiyasi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Globalashuv, matbuot, televideniya, OAV, rivojlanish, tizim, uzatish, jamiyat.*

Jahonda kechayotgan globalashuv jarayonlarining matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlari orqali jamiyatning har bir sohasiga chuqur singib, insonlar turmush tarziga ta'sir etib borishi tobora jadallashmoqda. Matbuot, ommaviy axborot vositalari bunday shiddat va tezkorlik bilan o'zgarishi insoniyatning o'z istiqboli yo'lida so'z erkinligini ta'minlashga, falsafiy tafakkur doirasida real voqelikni ochib berishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga insonlarda yangicha tushunchalar shakllanib, har kungi axborotlarni o'z vaqtida bilishi, mushohada qilish ko'lami kengayib borishi bilan birga, ularda ijtimoiy-falsafiy voqealar rivojiga monand pragmatik ko'nikma paydo bo'lganligi va jamiyatdagi o'zgarishlarni xolis baholash mezonlari rivojlanayotganligi real haqiqatlarda namoyon bo'lmoqda. Jahon ilmi-fanida ommaviy axborot vositalarining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni bo'yicha sezilarli darajada ilmiy-nazariy tadqiqotlar jadal rivojlanib bormoqda.

Rangli televideniye tabiatdagi barcha ranglarni ma'lum nisbatda olingan 3 ta asosiy rang — qizil, yashil va ko'k ranglardan optik jihatdan tiklash mumkin bo'lgani uchun televizion uzatish kamerasi yoritilganlik signalini va asosiy ranglar signallarini yaratishi uchun bir emas, balki 3 ta trubkadan iborat bo'ladi. Uzatishda (telemarkazda) ana shu barcha signallar kodlanadi, qabul qilishda (televizion priyomnikda) dekodlanadi. 80y. lar o'rtalaridan boshlab raqamli Televideniye tizimi ustida ishlar olib borildi va amalda joriy qilindi. Bu tizimda elektr impulslarning kod (raqam)li kombinatsiyalari ketma-ketligidan foydalaniladi. Kabelli Televideniye tizimidan ham foydalanilmoqda. Unda atmosfera va boshqa xalaqitlar bo'lmaydi. Kabellar (yorug'lik o'tkazgichlar) asosan yer ostidan o'tkaziladi.

Televideniye tizimlar quyidagi asosiy belgilari bo'yicha tasniflanadi: sifat belgisi bo'yicha — oqqora (monoxromli), rangli, stereomonoxromli va stereorangli; signallarni qanday shaklga keltirishi (videoinformatsiya) bo'yicha — analog va diskretli (raqamli); aloqa kanali spektrining chastotasi bo'yicha — keng polosali va tor polosali.

Televideniye inson turmushida muhim o'rinni egalladi; televizion eshittirish sifatida keng tarqaldi. Televizion apparaturalar fan, tibbiyot, xalq xo'jaligining turli tarmoklarida turli masalalarni hal qilishda keng ishlatiladi. Tasvirni uzoq masofaga olib ko'rsatish tajribalari 20-a. 30y. larida boshlandi. SSSR da 1931yil 1 oktyabrdan qo'zg'almas tasvirlarning kam qatorli televizion ko'rsatuvlari muntazam olib borildi. Harakatlanuvchi tasvirlarning birinchi ko'rsatuvlari 1932-yilda amalga oshirildi, 1934-y. ovozi Televideniye paydo bo'ldi. 30

yillarning oxirida kam qatorli mexanik Televideniya dan elektron Televideniye ga o'tilishi Televideniye taraqqiyotida yangi bosqich bo'ldi.

Ko'p yillar davomida televideniye analog ko'rinishida yuksalib bordi, bu sohada ko'p ilmiy izlanishlar amalga oshirildi, optik tasvirlarni elektr signallariga aylantirish va uzatish muammolari hal qilindi, analog TV uzatish tizimlarining standartlari yaratildi, tasvir sifatini va aniqligini oshirishning samarali usullari ixtiro qilindi va tadbir etildi, televizion ko'rsatuv va dasturlarni uzoq joylarga buzilishlarsiz uzatish, qabul qilish vazifasi uddalandi. Ammo o'tgan asrning 80-yillariga kelib mutaxassislar analog uslubdagi televideniye ning yuksalish imkoniyatlari cheklanganligiga, televideniye ning hali foydalanilmagan imkoniyatlari ko'pligiga, bularni analog TV tizim bilan amalga oshirib bo'lmasligiga iqror bo'ldilar. Analog signalning eng asosiy cheklovchi ko'rsatkichlaridan biri — uning tashqi xalaqitlardan yomon muhofaza qilinganligi natijasida televizion traktdagi ko'p sonli qurilmalarning har birida shovqin va boshqa xalaqitlar unga kuchli ta'sir ko'rsatishidir.

Hozirgi zamon keng tarqatuvchi TV tizim juda ko'p signallarni o'zgartirish, qayta ishlash va uzatish qurilmalari zanjirlaridan iborat, ularning soni televideniye tizimining yuksalishi sayin ko'payib bormoqda. Bunday tizimlarda asosiy masala xalaqitlardan muhofaza qilishning samarali usullarini yuzaga chiqarishdir.

Internetning rivojlanishi natijasida an'anaviy jurnalistikaning funksiyalari, ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli o'zgardi. Bu o'z navbatida, yangi ijtimoiy-madaniy fenomen, ya'ni internet jurnalistikasini yuzaga kelishiga olib keldi. Natijada yangi sohani chuqur o'rganish va tadqiq etish masalasi ommaviy kommunikatsiya va jurnalistika nazariyasining dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Internet jurnalistikasining nazariy-metodologik asoslari qator xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning mazkur masalaga yondashuvlari turlicha. Masalan, jurnalist, bloger, Birmingham (Birmingem) universiteti professori Paul Bredshou ham o'z ishida "onlayn jurnalistika" terminidan foydalanadi. Uning fikricha, "online" yoki internet jurnalistikasi bu — internet tarmog'idagi elektron nashrlardir. Ular bosma nashrlarning elektron nusxasi, sof internet nashrlar yoki o'zining bosma ko'rinishga ham ega bo'lgan internet nashrlarga aytiladi. Shuningdek, J. Jons, L. Solter, L. Fernando, A. Firdavs, D. Xayder, J. Tomaslar tadqiqotlarida "raqamli jurnalistika" istilohidan foydalanadilar. Raqamli jurnalistika atamasi juda ham keng tushuncha bo'lib, u nafaqat onlayn jurnalistikasini, balki an'anaviy OAVning raqamli texnologiyalarni qo'llashini ham anglatadi.

Internetning rivojlanishi natijasida an'anaviy jurnalistikaning funksiyalari, ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli o'zgardi. Bu o'z navbatida, yangi ijtimoiy-madaniy fenomen, ya'ni internet jurnalistikasini yuzaga kelishiga olib keldi. Natijada yangi sohani chuqur o'rganish va tadqiq etish masalasi ommaviy kommunikatsiya va jurnalistika nazariyasining dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Internet jurnalistikasining nazariy-metodologik asoslari qator xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning mazkur masalaga yondashuvlari turlicha. Masalan, jurnalist, bloger, Birmingham (Birmingem) universiteti professori Paul Bredshou ham o'z ishida "onlayn jurnalistika" terminidan foydalanadi. Uning fikricha, "online" yoki internet jurnalistikasi bu — internet tarmog'idagi elektron nashrlardir. Ular bosma nashrlarning elektron nusxasi, sof

internet nashrlar yoki o‘zining bosma ko‘rinishga ham ega bo‘lgan internet nashrlarga aytiladi. Shuningdek, J. Jons, L. Solter, L. Fernando, A. Firdavs, D. Xayder, J. Tomaslar tadqiqotlarida “raqamli jurnalistika” istilohidan foydalanadilar. Raqamli jurnalistika atamasi juda ham keng tushuncha bo‘lib, u nafaqat onlayn jurnalistikasini, balki an‘anaviy OAVning raqamli texnologiyalarni qo‘llashini ham anglatadi.

Internet va axborot texnologiyalarining taraqqiyoti an‘anaviy mass-media modifikatsiyasi va transformatsiya jarayonlarini yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda “bugun media landshaftini o‘zgartirayotgan talablar nimalardan iborat, degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Buni, bir tomondan, global tarmoq axborotni yig‘ish, saqlash va tarqatish uchun yangi ochiq makon fuqarolik jamiyati taraqqiy etishida muhim omil sifatida xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, axborot kommunikativ muhit sifatida shakllangan internet infratuzilmasi telekommunikatsiya tizimlari, axborot texnologiyalari, turli kontent ilovalarga ega bo‘lgan axborot resurslaridan tarkib topganligi bilan izohlanadi.

Bugungi kunda, ommaviy axborot vositalarining tili va uslubi allaqachon shakllanib ulgurgan bo‘lishiga qaramay, televideniye tilida o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalar talaygina. Ayniqsa, televizion matnlar tahririga oid muammolar zamonaviy jurnalistikamizda yetarlicha topiladi. Televizion jurnalistikaning asosi axborot dasturlari negiziga quriladi. “Televideniyaning axborot funksiyasi haqida gapirganda, “axborot” tushunchasining tor va o‘ziga xos talqini bilan cheklanib bo‘lmaydi. Zamonaviy dunyoda odamlar tomonidan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ma‘lumotlarni muntazam ravishda olish odatiy holga aylandi. Bundan kelib chiqadiki, axborot dasturlari har qanday telekompaniya efir vaqtining tayanch nuqtasi bo‘lib, boshqa barcha dasturlar yangiliklar orasidagi intervallarda joylashadi”. Informatsion dasturlarda reportyorlarning o‘rni yetakchiligini inobatga olsak, rossiyalik telejurnalist, Moskva davlat universitetining jurnalistika fakulteti tele-radio kafedresi dotsenti Georgiy Vladimirovich Kuznetsovning quyidagi fikrlari o‘rinli bo‘ladi: “Reportyorlik ishi – bu televideniyaning real hayotga kirib borishi demakdir. Reportajsiz telejurnalistika studiyada “gapiruvchi boshlar”ni ko‘rsatishdan iborat bo‘lib qolar edi. Agar yangiliklarni olib boruvchi “teleyulduzi”ni reportajsiz qoldirsak, bunday yangiliklarni hech kim ko‘rmaydi. Har bir reportaj dunyo mozaikasini yaratishdagi bir toshdir. Televideniye esa har kuni sayyoramizda sodir bo‘layotgan eng muhim va qiziqarli voqea-hodisalarni ko‘rish uchun ixtiro qilishgan”. Televideniye da informatsion dasturlarda sarlavhalar, ruknlar tanlash va ularni tahriri haqida gapirishdan avval “yangilik” atamasini nima ekanligini tushinib olishimiz darkor. “Axborot bloki ikki xil shaklda tavsiflanadi: alohida yangiliklarga oid lavhalar va butun boshli ma‘lumotlar “paketi”. Keng ma‘noda “yangiliklar” so‘zining ma‘nosi – informatsion lavhalar yoki yangiliklarni qamrab oluvchi davriy dasturlar majmuasi. Tor ma‘noda esa “yangiliklar” atamasi informatsion dasturlar tarkibini tashkil qiluvchi lavhalar, aniqrog‘i yangiliklarga oid lavhalardir”.

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog‘i orqali masofadan turib, onlayn yoki oflayn o‘qish imkoniyatlarining paydo bo‘lishi, ta‘lim oluvchi va ta‘lim beruvchilarga juda katta imkoniyat bermog‘da. Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab elektron ta‘lim olish imkonini beruvchi juda ko‘plab elektron ta‘lim platformalari faoliyat yuritmoqda. Elektron usulda ta‘lim olishning eng afzal tomoni ta‘lim oluvchi ayrim sabab bilan darsda qatnasha olmasa yoki

darsni yaxshi o'zlashtira olmasa, platformaga kirib, video-ma'ruzalardan qayta-qayta foydalanishi mumkin. Bu esa ta'lim olish samaradorligini sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ta'lim tizimida fan va ishlab chiqarishning integratsiyasiga e'tibor qaratish, ta'lim jarayoniga elektron ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, masofaviy ta'limni qo'llabquvvatlash zarur. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini masofaviy ta'lim jarayonida qo'llashning ikkita zaruriy sharti mavjud:

- texnik jihozlar bilan taminlanganlik;
- maxsus dasturiy ta'minotlarning mavjudligi.

Ma'lumki, televideniye XX asrning eng buyuk voqeasi bo'lib, o'zida ilmiy texnikaviy tafakkur, madaniyat, jurnalistika, san'at, iqtisodiyotning eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassam etgan. Ommaviy kommunikatsiya vositalari tizimining tarkibiy qismlaridan biriga aylangan televideniye uning shakllanishini yakunlanmadi, ammo nafaqat uning har bir elementining faoliyat ko'rsatishiga, balki butun davlat institutlari faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatib, jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi, bu ayniqsa jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy ahamiyatga ega davrlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zR MTRK ning joriy arxivi. (A.Tulyaganov - 1963-1993 yy. O'zteleradiokompaniyasi muzeyi direktori; SH.Tadjibayev – Toshkent axborot texnologiyalari universitetining televideniye va radioeshittirish kafedrasini mudiri; M.Atamuxamedov – O'zbekiston televideniye, radioaloqa Markazi Bosh direktori bilan interv.); «Vecherniy Tashkent» 8 may 1996 yil, № 7
2. T.Qozoqboyev, M.Xudoyqulov “Jurnalistikaga kirish” Toshkent «Iqtisod-moliya» 2018
3. Abduazimova N. A. Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. T.: Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2007.
4. Tolqin Qozoqboyev. Jurnalistika asoslari. T.: Musiqa, 2007.
5. Tog'ayev O. Publitsistika janrlari. T.: O'qituvchi, 1976.